


## XII. BANDLIK VA MEHNAT BOZORI

2025- yil yanvar-iyun oylarida kambagʻallikni qisqartirish va bandlikka koʻmaklashish boʻlimlariga ishga joylashtirishda yordam berishni soʻrab 36 019 nafar fuqaro murojaat qildi. Ish qidirib murojaat etganlarning katta qismi Qarshi (3 491 kishi), Qamashi (2 952 kishi), Koson (2 923 kishi), Qarshi shahrida (2 921 kishi), Dexqonobod (2 608 kishi), Kitob (2 414 kishi), Shahrisabz (2 281 kishi), Kasbi (2 234 kishi), Gʻuzor (2 148 kishi), Chiroqchi (2 107 kishi), Yakkabogʻ (2 007 kishi) tumanlariga toʻgʻri keladi.

Kambagʻallikni qisqartirish va bandlikka koʻmaklashish boʻlimlariga murojaat qilgan fuqarolardan 19 581 nafari ishga joylashtirildi. Ayniqsa ushbu koʻrsatkich, Qarshi shahrida (1 748 kishi), Koson tumanida (1 741 kishi), Kitob (1 542 kishi), Gʻuzor (1 278 kishi), Chiroqchi (1 272 kishi), Dexqonobod (1 270 kishi) Qarshi (1 232 kishi), tumanlarida yuqori darajada boʻldi. Oʻtgan davr mobaynida bandlikka koʻmaklashuvchi markazlarida roʻyxatga olingan fuqarolardan 323 nafari ishsizlik maqomini olgan.

Bandlikka koʻmaklashuvchi markazlari orqali ishga joylashtirilgan fuqarolar soni quyidagicha ifodalanadi:

### Kambagʻallikni qisqartirish va bandlikka koʻmaklashish boʻlimlari orqali ishga joylashtirilgan fuqarolar soni (kishi)




**Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limlariga  
ish qidirib murojaat etgan va ro‘yxatga olinganlar soni**  
(2025- yil 1- iyul holatiga, kishi)

	<i>Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limlariga ish qidirib murojaat etganlar soni</i>		<i>jumladan, rasman ishsiz maqomini olganlar</i>		<i>ulardan, ishsizlik nafaqasi ajratilganlar soni</i>	
	<i>2024- yil yanvar-iyun</i>	<i>2025- yil yanvar-iyun</i>	<i>2024- yil yanvar-iyun</i>	<i>2025- yil yanvar-iyun</i>	<i>2024- yil yanvar-iyun</i>	<i>2025- yil yanvar-iyun</i>
<b>Viloyat bo‘yicha:</b>	<b>42 932</b>	<b>36 019</b>	<b>936</b>	<b>68</b>	<b>936</b>	<b>68</b>
shaharlar:						
Qarshi	4 034	2 921	23	-	23	-
Shahrisabz	1 805	1 805	71	6	71	6
tumanlar:						
G‘uzor	3 383	2 148	197	27	197	27
Dehqonobod	2 655	2 608	32	-	32	-
Qamashi	2 493	2 952	34	1	34	1
Qarshi	3 499	3 491	28	4	28	4
Koson	3 511	2 923	51	16	51	16
Kitob	3 142	2 414	81	2	81	2
Mirishkor	1 625	1 750	82	-	82	-
Muborak	1 839	1 337	31	4	31	4
Nishon	2 260	1 552	14	4	14	4
Kasbi	2 701	2 234	39	-	39	-
Ko‘kdala	2 392	1 489	37	1	37	1
Chiroqchi	2 377	2 107	48	-	48	-
Shahrisabz	2 935	2 281	117	2	117	2
Yakkabog‘	2 281	2 007	51	1	51	1



### Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limlariga ish qidirib murojaat etgan fuqarolarning hududlar kesimidagi ulushi

(jami murojaat qilganlarga nisbatan ulushi, foizda)



Izoh: 2025- yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limlariga murojaat qilib kelganlardan ro'yxatga olinganlar ulushi Qarshi, Qamashi, Dehqonobod, Qarshi shahri, Koson, G'uzor, Kitob, Chiroqchi va Kasbi tumanlarida yuqori bo'lgan.


## Ish bilan ta'minlangan aholi soni<sup>1)</sup>

	<i>2024- yil yanvar-iyun</i>	<i>2025- yil yanvar-iyun</i>
<b>Viloyat bo'yicha:</b>	<b>23 378</b>	<b>19 581</b>
<i>shaharlar:</i>		
Qarshi	1 795	1 748
Shahrisabz	948	1 145
<i>tumanlar:</i>		
G'uzor	1 718	1 278
Dehqonobod	1 547	1 270
Qamashi	1 122	1 154
Qarshi	1 451	1 232
Koson	2 225	1 741
Kitob	2 064	1 542
Mirishkor	779	1 098
Muborak	1 162	861
Nishon	1 062	899
Kasbi	1 510	1 028
Ko'kdala	1 486	992
Chiroqchi	1 409	1 272
Shahrisabz	1 797	1 178
Yakkabog'	1 303	1 143

<sup>1)</sup> *Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi ma'lumotlari asosida*



**Ish bilan ta'minlangan aholining hududlar kesimidagi ulushi**  
(jami ish bilan ta'minlanganga nisbatan ulushi, foizda)



**Izoh:** Ishga joylashtirilgan shaxslar soni Koson, Qarshi shahrida, Kitob, G'uzor, Chiroqchi, Shahrisabz, Qarshi tumanlarida yuqori bo'lganligini ko'rish mumkin.

## O‘RTACHA OYLIK ISH HAQI

**O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi.** 2025- yilning yanvar-iyun oylarida Qashqadaryo viloyatida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 4 148,3 ming so‘mni tashkil etdi.

Bunda ish haqiga ustama, mukofot, rag‘batlantirish xususiyatiga ega to‘lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to‘lovlar kiritilgan, shuningdek uning tarkibida jismoniy shaxslarning daromad solig‘i, ijtimoiy sug‘urta va kasaba uyushmasiga to‘lovlar ham mavjud.

2025- yilning yanvar-iyun oylarida Qashqadaryo viloyatida o‘rtacha oylik ish haqining eng yuqori miqdori Nishon tumanida 6 080,5 ming so‘m (viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 146,5 %), Qarshi shahrida 5 712,9 ming so‘m (137,7 %), Muborak tumanida 4 593,4 ming so‘m (110,7 %) va G‘uzor tumanida 4 239,8 ming so‘m (102,2 %) ni tashkil etgan.


### Yuridik shaxslarda xodimlar soni va mehnatga haq to‘lash tarzida hisoblangan daromad

(2025- yilning yanvar-iyun oylarida qishloq xo‘jaligi korxonalari hamda kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

	Xodimlar soni, kishi	Mehnatga haq to‘lash tarzida hisoblangan daromad mlrd.so‘m	O‘rtacha oylik ish haqi, ming so‘m
<b>Viloyat bo‘yicha jami</b>	<b>247 083</b>	<b>6 097,2</b>	<b>4 148,3</b>
shu jumladan:			
Sanoat	26 686	1 097,4	6 854,0
Qurilish	6 765	166,8	4 108,8
Savdo	1 961	40,8	3 467,4
Tashish va saqlash	5 989	256,8	7 146,9
Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	321	4,0	2 069,7
Axborot va aloqa	1 090	65,9	10 069,3
Bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik	1 877	137,0	12 163,0
Ta‘lim	11 6189	2 360,2	3 385,6
Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko‘rsatish	53 017	908,3	2 855,5
San‘at, ko‘ngil ochish va dam olish	2 252	73,3	5 425,5
Boshqa faoliyat turlari	30 936	986,7	5 315,8

## O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2025- yilning yanvar-iyun oylarida qishloq xo‘jaligi korxonalarida hamda kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so‘m)



Viloyat bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 4 148,3 ming so‘mni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 14,4 % ga o‘sgan .

O‘rtacha ish haqining yuqori miqdorlari iqtisodiy faoliyat turlaridan Bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilikda 12 163,0 ming so‘m (viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 2,9 barobarga yuqori), Axborot va aloqada 10 069,3 ming so‘m (viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 2,4 barobarga yuqori), Tashish va saqlash sohasida 7 146,9 ming so‘m (viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 172,2 % ni tashkil qildi), Sanoat sohasida 6 854,0 ming so‘m (viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 165,2 % ni tashkil qildi), hamda San‘at, ko‘ngil ochish va dam olish sohasida 5 425,5 ming so‘m (viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 130,7 % ni tashkil qildi) ekanligi kuzatildi.




**Qashqadaryo iloyati bo'yicha**  
**o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**  
*(yanvar-iyun oylarida qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik*  
*subyektlaridan tashqari, ming so'm)*

	<i>2024- yil</i>	<i>2025- yil</i>	<i>O'sish sur'ati, % da</i>
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>3 628,5</b>	<b>4 148,3</b>	<b>114,3</b>
<i>shaharlar:</i>			
Qarshi sh.	5 023,8	5 712,9	113,7
Shahrisabz sh.	3 415,2	4 065,5	119,0
<i>tumanlar:</i>			
G'uzor	3 971,1	4 239,8	106,7
Dehqonobod	3 370,5	4 104,5	121,7
Qamashi	2 622,4	2 977,2	113,5
Qarshi	2 849,4	3 357,0	117,8
Koson	3 002,9	3 132,8	104,3
Kitob	2 748,2	3 367,7	122,5
Mirishkor	2 785,0	3 037,7	109,0
Muborak	4 614,0	4 593,4	99,5
Nishon	4 452,2	6 080,5	136,5
Kasbi	2 850,2	2 837,7	99,6
Ko'kdala	2 831,2	3 202,9	113,1
Chiroqchi	2 860,4	3 400,1	118,8
Shahrisabz	2 761,9	3 163,9	114,5
Yakkabog'	2 603,8	3 007,7	115,5


**Ish haqi.** 2025- yilning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ish haqi tahlili quyidagilarni ko'rsatmoqda.

**Ta'lim sohasida** 1 918 ta muassasada 116 189 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 47,0 %) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 2 360,2 mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 38,7 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 385,6 ming so'mni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 16,4 % ga o'sgan.

**Ta'lim iqtisodiy faoliyati bo'yicha**  
**o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**  
*(2025- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)*



**Hududlar**




■ ming so'm



**Sanoat** iqtisodiy faoliyat turida 49 ta korxonada 26 686 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 10,8 %) xodim ishlagan bo‘lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 1097,4 mlrd. so‘mni (jami ish haqi fondidagi ulishi 18,0 %) tashkil etgan. Sanoat sohasida ishlovchilarga hisoblangan o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 6 854,0 ming so‘mni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 16,4 % ga o‘sgan.

### Sanoat iqtisodiy faoliyati bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2025- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari ming so‘m)




Ushbu sohadagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko‘rsatkichini viloyat hududlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, ya‘ni o‘rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Nishon tumanida 17 316,6 ming so‘mni (viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 2,5 barobarga yuqori), Dehqonobod tumanida 8 186,9 ming so‘mni (119,4 % ni tashkil qildi), G‘uzor tumanida 7 853,4 ming so‘mni (114,5 % ni tashkil qildi), tashkil etgan bo‘lsa, Qamashi tumanida 2 378,9 ming so‘mni (34,7 foizini), Ko‘kdala tumanida 2 633,4 ming so‘mni (38,4 foizini) hamda Mirishkor tumanida 2 647,8 ming so‘mni (38,6 foizini) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo‘lmoqda.



**Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish** sohasida 328 ta muassasada 53 017 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 21,4 %) xodim ishlagan bo'lib ularga hisoblangan ish haqi fondi 908,3 mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 14,9 %) ni tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 855,5 ming so'mni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 10,3 % ga o'sgan.

**Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**  
(2025- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari ming so'mda)




Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini viloyat hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Qarshi shahrida 3 374,1 ming so'mni (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 118,1 %) ni tashkil etgan bo'lsa, Kasbi tumanida 2 107,9 ming so'mni (73,8 %) ni tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.



**San'at, ko'ngil ochish va dam olish** iqtisodiy faoliyat turida 68 ta muassasada 2 252 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 0,9 %) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 73,3 mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 12,0 %) ni tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 5 425,5 ming so'mni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 21,5 % ga o'sgan.

### **San'at, ko'ngil ochish va dam olish faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**

(2025- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so'mda)



Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini viloyat hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Muborak tumanida 7 889,1 ming so'mni (viloyatdaga o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 145,4 %), Qarshi shahrida 6 512,1 ming so'm (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 120,0 %) ekanligi kuzatildi.

## O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati

(2025- yilning yanvar-iyun oylarida qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari % da)

### Foiz

